

Date: 19<sup>th</sup> October-2024

**ALBERT KAMYU ASARLARIDAGI QAHRAMONNING PSIXOLOGIK  
TALQINI**

**Ma’rufov Donyor Dilshod o‘g‘li**

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

**O’rinboyeva Nozanin Zuxriddin qizi**

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’ZMU talabasi

Fransuz yozuvchisi va faylasufi, inson vijdonini real vogelikka aylantirgani uchun nobel mukofoti sohibi, zamondoshlari tomonidan “Garb vijdoni” degan sharaflı nom bilan ulug’langan Alber Kamyu 50-yillardagi jahon inteligensiyasi tafakkuri va dunyoqarashiga yangicha ruh olib kirgan ijodkorlardan sanaladi. Ekzistensializm oqimining yirik namoyondasi asli Jazoirlilik ushbu ijodkor umri davomida juda barakali ijod qilgan. “Vabo” romani, “Begona” qissasi, “kaligula pyesalari juda ham mashxur.

Adibning ayniqsa “Begona” asari alohida shuhrat topdi. Yaratilganiga 60 yildan oshgan bo’lsada nafaqat Fransiya, balki jahonning boshqa mamlakatlarida mashhurdir. Asar qahramoni Merso haqida to’xtaladigam bo’lsak, u hech narsaga qiziqmaydi va hech kimga mehr qo’ymaydi. Psixologik jihatdan talqin etsak ham ushbu qahramonning holati tadqiqotchini o’ylantiradi. Nima uchun Kamyu qahramoni sotsiumdagi boshqa shaxslar yoki o’zining shaxs sifatidagi hayotiga nisbatan bu qadar befarq? Balki bu uning o’zi va jamiyat ya’ni boshqa shaxslar jamoasi bilan bevosita bog’liqligini sezmay, anglamay yashaganidandur? Jamiyat bu aslida shaxslar yig’indisidir, uni turli shaxslar tashkil etadi. Merso uning azosi bo’lmasa u holda kim? Holbuki u boshqa shaxslar kabi muayyan bir jamiyatda yashardi, boshqa shaxslar bilan normal til topisha olishi mumkin edi, bevosita o’zi tashkil etib turuvchi sotsiumda biror-bir faoliyat bilan shug’ullanishi mumkin edi-ku! Hattoki asar boshlanishi uning onasining o’limi bilan boshlansada, qachon onasi vafot etganini bilmaydi ham, bilishni ham xohlamaydi. U buni sovuqqonlik bilan qabul qiladi. Chunki u onasini allaqachon qariyalar uyiga oborib tashlagan edi. Dafn marosimlari ham befarqlik bilan ado etiladi. Bu qahramon jamiyatdan va o’z “Men”idan juda ham begonalashgan. Ushbu holat psixologik jihatdan ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Antisosial shaxs buzilishi (ASPD) - bu boshqa odamlarga nisbatan hamdardlik va e’tiborning etishmasligi bilan tavsiflangan holat. Shaxsiyatning antisosial buzilishi bo’lgan odamlarda yaxshi yoki yomonni kam yoki umuman hisobga olmaydilar. Ular qarama-qarshi bo’lib, ko’pincha befarq yoki hissiyotsiz tarzda harakat qilishadi. Ushbu kasallikka chalingan shaxslar yolg’on gapirishlari, tajovuzkor yoki zo’ravonlik bilan shug’ullanishlari va jinoiy harakatlarda qatnashishlari mumkin.

Ushbu asar shuning uchun ham keskin tanqidlarga uchradi. Jamiyatning o’rta qatlami uchun qog’oz qoralaydigan, ularning tor doiradagi fikrlash doirasini maromiga yetkazib kuylaydigan yozuvchilar shaxs bu darajada befarq bo’lishi mumkin emasligini aytishdi. Adibning sotsiumdan uzoqlashish haqidagi g’oyalari ham keskin tarzda qarshilikka uchragan edi. Bir ovozdan Kamyu ijodini “Absurd” deb nomlashdi. Lekin oradan yillar o’tdi va safsata sifatida qoralangan asarda aslida reallikning yuqori cho’qqisi

Date: 19<sup>th</sup> October-2024



ko'rsatib berilganini dunyo tan oldi.Jamiyatdan begonalashuv fenomening mavjudligini sotsiologiya va psixologiya fanlari birga o'z fan yutuqlari va muammolarini birlashtirgan holda bu ishni isbotlashdi.

Xo'sh begonalashuv fenomeni,jamiyatdan uzoqlashish,egosentrizm aslida nima?Bugungi kunda bular jamiyat hayotida qanchalik mustahkam o'rnashib olgan?Unga nimalar sabab bo'ladi?

Shaxsiyatning antisosial buzilishining aniq sabablari ma'lum emas, shaxsiyat tabiat va tabiatni o'z ichiga olgan turli xil kuchlar tomonidan shakllanadi.ASPD umumiyl populyatsiyaga qaraganda buzilishi bo'lganlarning birinchi darajali biologik qarindoshlari orasida ko'proq uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ASPD meros bilan chambarchas bog'liq va atrof-muhit ta'sirlari uning rivojlanishini yanada kuchaytiradi.Tarbiya ham muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalikdagi suiiste'mollik, beparvolik va travma ASPD paydo bo'lishi bilan ham bog'liqdir .. Agar bolaning ota-onasi qo'pol muomala qilsa va ishiga yaroqsiz bo'lsa, bolalar bunday xulq-atvor modellarini o'rganishlari va keyinchalik ularni o'z farzandlari bilan birga namoyish qilishlari mumkin.Uyushmagan va qarovsiz uylarda o'sgan bolalar ham kuchli intizom, o'zini tuta bilish va boshqalarga hamandardlik hissini rivojlantirish uchun imkoniyatlardan mahrum.Buzilish xavfini oshiradigan bir qator omillar homiladorlik paytida chekish va miyaning anormal ishlashini aniqladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ASPD bilan og'rigan odamlarda frontal lobda, rejalashtirish va qaror chiqarishda rol o'ynaydigan miyaning hududida farqlar mavjud.

Begonalashuv-shaxs va uning jamiyatdagi o'rni,roli,maqomi,mavqeyi,ining bajaradigan vazifasi va jamiyat tomonidan o'rnatilgan sanksiyalardan qochishi va shu orqali o'zi va jamiyat o'rtasidagi azaliy bog'liqlikdan abadiyga uzilishidir.Ilmiy amaliy markaz rahbari Muhammadjon Quronov tomonidan ushbu atamaga quydagicha ta'rif berilgan:-"Inson va jamiyat munosablaridagi me'yorning buzulishi,insonning o'z mohiyatini belgilovchi xususiyatlardan mahrum bo'lib jamiyatda o'z o'nini topolmasligi begonalashuvning tub ildizini tashkil etadi."

Begonalashuv - bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Bu muammoni nemis mutafakkiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Zamonaviy jamiyatni E. Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari tufayli begonalashuvning bir mahsuli, deb ta'riflaydi. Buning isboti sifatida G'arbdan kuzatilayotgan jamiyatning «atomlashuvi» jarayonini keltirish mumkin.Bu degani, jamiyatda ikki kishini bog'laydigan hech narsa yo'q. Odamlar orasida avtonom turmush tarzi keng yoyilib ketmoqda. Nima qilmoq kerak? Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarni bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va hamkorlik asosiga qurish kerakki, shunda har bir inson o'zini boshqalar ham uchun kerak ekanligini chin yurakdan his qilsin

Shaxsiy hayotga qarshi buzilish ko'pincha odamning ishlash qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa hayotning ko'p jihatlari bilan kurashishni qiyinlashtirishi mumkin. Ushbu holat zararli yoki jinoiy harakatlar tufayli qamoqqa, jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin.Bu shaxsning ishlash qobiliyatiga va munosabatlarni saqlashga ta'sir qiladi.Ushbu buzuqlik, shuningdek, do'stlari, oila a'zolari, hamkasblari va begona

Date: 19<sup>th</sup> October-2024



odamlarga zarar etkazishi mumkin, ular shaxsning harakatlaridan zarar ko'rishi mumkin. ASPD bilan kasallangan odamlarning aksariyati o'zлari yordam so'ramaydilar va aralashuv faqat huquqiy muammolar tufayli sodir bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eng yaxshi dunyoqarashga ega bo'lganlar - bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va turmush o'rtog'i va oilaviy aloqalarini kuchliroq bo'lganlar. Agar sizda ASPD bilan kasallangan yaqinlaringiz bo'lsa, ruhiy kasalliklar bo'yicha mutaxassis bilan suhbathlashish foydali bo'lishi mumkin. Ular sizga o'zingizni zarardan himoya qilish uchun chegaralarni belgilashga yordam beradigan engish qobiliyatlarini o'rganishda yordam beradi. Guruh terapiyasi va yordam guruhlari, shuningdek, yordam va ma'lumotlarning foydali manbalari bo'lishi mumkin. Kamyu yaratgan ushbu qahramoni ustida nafaqat kitobxonlar balki psixologiya sohasi vakillarini ham bahslariga sabab bo'ladi. Insonni shaxs va jamiyat munosabatlari haqida o'ylashga va mushoxada yuritishga chorlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alber Kamyu "Begona" asari Toshkent 2014
- 2."Ijtimoiy psixologiya" A.Akramova Toshkent 2007
- 3."umumiyy psixologiya" F.Xaydarov, N.Xalilova Toshkent 2019